

## OMON MUXTORNING “MAYDON” ROMANIDA G‘OYAVIYLIK VA ROMAN BADIYATI

**Guliston davlat universiteti doktoranti,  
Karimov Furqatjon Qahramon o‘g‘li**

“Qator yopiq eshiklarni tasavvur qiling. Yozuvchi sizni ulardan ichkariga olib kiradi. Yaxshi-yomon hech bir voqeaga qiziqmasangiz, demak dunyoga kelmaysiz, - degan edi Omon Muxtor “Xotin podshoh” kitobining so‘nggi sahifasida.

“Qator yopiq eshiklarini” insonning ichki olami, ruhiyati deb tushunsak, demak, yozuvchi kitobxonni ana shu insonning eng sirli, eng nozik ichki ruhiyat manzaralariga olib kira oladi.

Ko‘plab adabiyotshunoslar, xususan, kitobxonlarning e‘tibor-u e‘tirofiga sazovor bo‘lgan “Maydon” romanida ham insonning shaxsi yoki voqealar tizimiga emas, balki insonning ruhiyat olami tadqiqiga e‘tibor beriladi.

Adib asariga “roman-hangoma” deb izoh beradi. Bilamizki, O.Muxtor adabiyotimizda o‘z ovozigacha, o‘z so‘ziga ega adib sifatida tanilgan. Uning romanlarida falsafiy mushohadakorlik kuchliligi bilan birga, uslub va shakl o‘ziga xosligi, nazm va nasr aralash holda kelishi holati va yana bir muhim jihat, hajmning qisqaligi, mazmunning kengligi bilan ajralib turadi.

“Maydon” romaning ilk sahifasidanoq “Olisdan eshitilgan nido” sarlavhasi ostida she‘r beriladi.

Nima uchun bunchalik azob?  
Hayotda o‘rningni olish uchunmi?!  
Umr o‘tar ekan bamisoli xob,-  
Tarixlarda qolish uchunmi?!<sup>1</sup>

Adib roman boshida bejizga bu satrlarni keltirmaydi. Inson tug‘ilibdiki, u ijtimoiy muhitda, jamiyatda yashaydi, odamlar bilan muomalada bo‘ladi. Buning

<sup>1</sup> Omon Muxtor. Хотин подшоҳ. – Т.: Шарк, 2010, 336-bet.

natijasida yo yuksaladi, yo tanazzulga yuz tutadi. Muhit doim insonga uning taqdiriga ta'sir qiluvchi hodisa sanaladi.

Muhit degani, umuman, inson yashayotgan joy, maydonidir.

Ushbu she'r roman mohiyati, uning g'oyasini yanada ochib berishga xizmat qilgan.

“Inson nega azob chekadi? Intiladi, Kurashadi? Tarixda qolish uchunmi? Yo‘q. Inson yashash uchun bu maydonga – dunyoga tushadi. Maydon keng. Uning ichida ham atrofida ham odamlar bor. Inson aynan shu maydonda yashaydi. O‘zini, o‘zligini anglaydi”

Ushbu roman xajmi 90 sahifani tashkil etadi.

“Omon Muxtor hajman an'anaviy qissalaridan chog'roq bo'lgan romanlari ifoda tarzida tarzi, syujet rivoji va tashkiliy qurilishining o'ziga xos va bir muncha murakkabligiga qaramay, o'qilayotganligi ham shundan dalolat beradi”<sup>3</sup>.

Darhaqiqat, yozuvchining katta epik janridagi V.G.Belinskiy aytganidek, “zamonimizning epopiyasi” asarlari biz o'rganib qolgan, an'anaviy romanlaridan ancha kichik, albatta. Lekin yozuvchi aytganidek, hajmiga emas, mazmuniga e'tibor berganini esga olsak, ma'lum darajada adib yutuqqa erishganligiga guvohi bo'lamiz.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev “Yoniq so'z” kitobida: “Omon Muxtor romanlarining hajman mo'jazligiga sabab ham, bizningcha, tasvirlashga arziydigan hayotiy tafsilotlarning yo'qligi yoxud adibning tasvir kalavasini yo'qotib qo'yishdan qo'rqish emas, balki muallif tomonidan shaxs ichki olami qay miqyosda tekshirilishi maqsad qilib olinganligidir”<sup>1</sup>.

Asarda obrazlar talaygina. Ular Adib, Qizcha, Osiy, Ayol, Hakim, Bemor, Savdogar, Baxshi, Arbob, Darvesh-masxaraboz, Adib ularni ismi bilan atamaydi. Balki bu “maydon”dagi mavqei bilan atab qo'ya qoladi, xolos. Bu adibning erinchoqligi yoki injiqligidan emas, albatta.

<sup>2</sup> Q.Йўлдошев. Ёник сўз. – Т.: Yangi asr avlodi. 2006. 70-bet.

<sup>1</sup> Q.Йўлдошев. Ёник сўз. – Т.: Yangi asr avlodi. 2006. 390-bet.

Bunday asar qahramonini ismi bilan atamaslik jahon adabiyotida Frans Kafka, o‘zbek adabiyotida Nazar Eshonqul kabi ko‘plab ijodkorlar asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Romanning asosiy o‘rinlarida qahramonlar, ularning ijtimoiy mavqe, holat bilan atalsa, keyingi o‘rinlarda ismlari bilan ham atash ko‘zga tashlanadi. “Yozuvchining mahorati shundaki, u asardagi timsollarga nom bermaganligining o‘zi bilan ularning umumlashtiruvchilik kuchini bo‘rttirib ko‘rsatishga erishgan”<sup>2</sup>, - deydi olim Qozoqboy Yo‘ldoshev.

Voqealar Panoh va keyin deyarli barcha qahramon tilidan hikoya qilinadi. Adib bu asarida inson ruhiyatiga, ya’ni psixologizimga kuchli e’tibor bergan. Asar voqealari yigirma yetti qavatli “karvonsaroy”da bo‘lib o‘tadi. Adib bejiz asariga “Maydon” deya nom qo‘ymaydi. Asar boshidan aynan shu so‘zga urg‘u berib o‘tadi.

“Bayram bo‘lmagan kunlar odam ko‘p yig‘ilmaydigan maydonda negadir ancha-muncha kishi chumolidek qorayib, u yon – bu yonga surinar edi!

Mening maydonda ishim yo‘q”<sup>3</sup>.

Asar tuguni asar qahramonlarining bosh obraz Panno (Panoh)ning osma- quti (lift)ga qamalib olishdan boshlanadi.

“Osma-quti 14-qavatdan o‘tib 13-qavatga etmasdan, shag‘al to‘kayotgandek, qandaydir g‘arilladi va birdan ko‘rgilik! –taq-taq to‘xtadi”. (366-bet)

Xalqimizda yetti raqami xosiyatli, baxtli, omadli raqam sifatida qaraladi. Haftaning yetti kundan iboratligi, dunyoning yetti kunda yaralgani, dunyoning yetti mo‘jizasi, yetti xazina, yettita chalpak va hk.

Taraqqiyot tufayli bizga ba’zi raqamlarning “bexosiyat, omadsizlik, baxtsizlik raqami” ham borligi ma’lum bo‘ldi. Bu – 13 raqami. Osma-qutining ham aynan 13-qavatda buzilib to‘xtab qolishi zamirida asar qahramonlarining hayotidagi bu lahzada tashvish, xavotir borligiga yozuvchi ishora qilgandek go‘yo. Shuningdek, yozuvchi

---

<sup>2</sup> O‘sha kitob, 391-bet

<sup>3</sup> Omon Muxtor. Xotin podshoh – T.: Sharq, 2010. 367-bet.

iloji boricha milliy jumladan foydalanishni xush ko‘radi. Xususan, lift o‘rniga osma-quti so‘zi butun asar davomida o‘zgarmaydi.

“ ... Yozuvchini voqea ham, uning hayotiy va ishonarli yoki uydirma va ishonarsiz ekanligi ham qiziqitirmaydi. Adib uchun muayyan sharoitga tushib qolgan odamlarning o‘sha damdagi holati, ruhiy iztiroblarini ko‘rsatish muhim”<sup>1</sup>

Asar tuguni 13 odamning bino 13-qavatida to‘xtab qolgan osma-qutida qamalib qolishdan boshlanadi.

“Yuqori qavatlaridan pastga tushib kelayotganlar hammasi menga tanish edi. Ular: Adib, Hakim, Mulla, Artist, Bemor, Baxshi, Osiy, Ayol, Savdogar, Qizcha, Arbob, Darvesh-masxaraboz!”<sup>2</sup>

13 kishi osma-qutida qamalib qolishi, bu bir oddiy dunyoning turli burchaklarida sodir bo‘lib turadigan bir voqea. Ammo tasodiflar tasodifan sodir bo‘lmaydi, degan gap bor. Ushbu tasodif asar qahramonlarining o‘z ishlariga, bu dunyoda qilgan savob-u gunohlariga javob beradigan, sarhisob qiladigan joyga aylanadi.

Ular hayot tashvishlariga to‘la bu maydon – dunyodan ajralib “odamiylik maydoni” yoki “ezgulik maydoni”ga tushib qolib, o‘z ishlariga sarhisob beradi.

Bu bevosita bizga jahon adabiyotida detektiv qirolichasi Agata Kristi qalamiga mansub “O‘nta negr bolasi” asarini yodimizga soladi. Unda jinoyat qilib, jazosiz qolgan va o‘n kishi “Zangilar oroli”da qamalib qolib, o‘z qilmishlariga javob bergan bo‘lsa, bu asarda osma-quti 13 kishiga ana shunday sharoitni yaratib beradi.

Asar tuzilishi faqat Omon Muxtor uslubiga xos. Roman ikki holat deya nomlangan shakl ostida voqealar bayon qilinadi.

Birinchi holat “Osiy”, ikkinchi holat “Qizcha” deb nomlanadi. Voealar goh umumiy sarlavha ostida (“Osiy”, “Qizcha” va hokazo) goh raqamlar bilan belgilangan holda bayon etilgan.

<sup>1</sup>Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. . – T.: Yangi asr avlodi. 2006. 397-bet

<sup>2</sup> Omon Muxtor. Xotin podshoh – T.: Sharq, 2010. 368-bet.

Asar tili ham o‘zgacha. Birinchi holatda aks etgan voqealar bosh qahramon Panoh tilidan asardagi obrazlarga, voqea-hodisalarga munosabati beriladi, hamda har bir qahramon sarlavhasi ostida ular ham o‘z tilidan bayon qilishi kuzatiladi.

Roman bosh qahramoni pasportida “Panno” deb yozilgan, hamma Panoh deb chaqiruvchi kishi. U Salima bilan telefonda gaplashgach: “Mening maydonda ishim yo‘q. Ammo qiziqqanim sababdanmi, xonada toqatim toq bo‘lib o‘tirganm uchunmi?! – xuddi shu asnoda, maydonni bir qur aylanib kelsammikan, degan xayolga bordim. Shart eshikka yo‘naldim”<sup>1</sup>, deya ishxonasidan pastga, maydonga tushmoqchi bo‘ladi-yu, osma-qutida qamalib qoladi.

Ha, Panoh yerdagi maydonga emas, haqiqiy “odamiylik maydoni”ga tushib qoladi. U “ensam qotib, tezroq pastga tushishni kutganча”<sup>2</sup> bezovtalanadi. Chunki osma-qutidagi odamlar bilan muloqat qilishni istamas, lekin taqdirimi yo sharoitmi ularni bunga majbur qiladi.

Romandagi har bir personaj jamiyatdagi qaysidir bir toifa insonlarning umumlashmasi yoki tipik vakili.

Yozuvchi bejiz ularning ijtimoiy holati bilan tanishtirib o‘tmaydi.

Panoh ham ma’lum darajada tipik qahramon.

“Adabiyot muallimi edim. Hali yigirma yetti qavatli karvonsaroyda ishlamasdim. Meni ijtimoiy-iqtisodiy muammolar qiziqtirmasdi”<sup>1</sup>

Panoh hayotda ko‘p uchraydigan biz bilan shu hayotda yashayotgan odam. U sodda, oqko‘ngil, to‘g‘riso‘z, ilimli shunday bo‘lsa-da, ayni paytda u oilasi buzilgan, hayotda baxtini izlayotgan, shu baxtni Salimada ko‘rayotgan qahramon. Yana u Adibning kitoblaridagi bosh qahramon. Bir suhbatda Adib uni yoqtirib qolib “Men siz to‘g‘ringizda kitob yozaman. Bosh qahramon siz...”<sup>2</sup> deb qoladi. Bunga javoban esa: “Birov sen haqingda kitob yozishi, kishini xavotirlantiradi. Biz ham chakki odam emas

<sup>1</sup> Omon Muxtor. Xotin podshoh – T.: Sharq, 2010. 368-bet.

<sup>2</sup> O‘sha asar 369-bet.

<sup>1</sup> Omon Muxtor. Xotin podshoh – T.: Sharq, 2010. 373-bet

<sup>2</sup> O‘sha asar 374-bet

ekanmiz, mazmunidagi oddiy bir xayol... Shuning barobarida, ko‘chada yalang‘och chiqayotgandek holatini sezasan.

Har qanday inson kitobga kiravermaydi. Panoh Adib asarlarining bosh qahramoni bo‘lsa ham u buni istamaydi, O‘ziga talabchan yozuvchi o‘zi ko‘rgan, bo‘lgan voqealar yozishi tarafdori.

Bemor ismi Sharif. U sog‘lom edi. Nima bo‘ldi-yu arzimas sabab bilan kasalxonaga yotadi va u erda Viloyat ismli juvon bilan tanishib qoladi va anglaydiki, “sog‘ tanda – sog‘lom aql” degan naql bekorligi, eng asosiysi qalb, ruh sog‘lomligiga ishonch hosil qiladi.

“Ishq boshqa, havas boshqa!- u biron ayolni biron payt bunchalik yaxshi ko‘rmagan edi”<sup>3</sup>

Sharif ko‘p ayollar bilan tanishgan, chunki uning tabiati shunday, ayollarning shaydosi. Lekin haqiqiy bemorlik Viloyatni ko‘rgach boshlandi. Ishq orqali u o‘zligini anglashi, poklanishi lozimligini bilmadi.

“Ana, balo-qazodan qutilmoqni istab, necha yildirki, Sharif boshini devorlarga uradi. Biroq...

U kirgan ko‘chaning

Oxiri yo‘qdek edi!”<sup>4</sup>

Omon Muxtor Bemor obrazi orqali “Muhabbat o‘limdan kuchli” deyotgandek bo‘ladi.

Romanda shunday tipik obrazlar borki, ular bugungi kunning ilg‘or, ishbilarmon odamlari. Ular arbob va savdogar.

Yozuvchi mahorati shundaki, jamiyatda bu kishilarning salbiy illatlarni ochiq-oydin, ularning o‘z so‘zlari, nutqi bilan ochib beradi.

Bu obrazlar o‘zga nigoh, gapi, qarashi bilan emas, balki o‘z so‘zi bilan o‘zligini “oshkor” qilib beriladi. Aynan osma-quti “maydon”da qamalib qolishi, ularning xarakterlarini yorqin ochib berishga yordam beradi.

---

<sup>3</sup> O‘sha asar 382-bet

<sup>4</sup> O‘sha asar 384-bet

“Savdogar yigirma yoshlardagi yigit. Ingichka mo‘ylov. Sipo kiyingan edi...”<sup>1</sup>

Asar qahramoniga berilgan ushbu ta’rif bizga savdogar haqida ancha-muncha ma’lumot beradi. Yigit nisbatan yosh, u jamiyatdagi shu kabi yoshlarning tipik vakili.

“Ingichka mo‘ylov” esa uning olifaligidan nishonasi. Sababi, o‘zbek xalqida “otaga tik boqmaslik, gap qaytarmaslik” o‘ziga xos odob. Shuningdek, yana shunday narsa borki, agar yigitlarning otasi mo‘ylov qo‘ysa, o‘g‘lining mo‘ylov qo‘yishga haqqi yo‘q, bu odobsizlik, otaga nisbatan hurmatsizlik bo‘ladi. Agar ota soqol qo‘ygan bo‘lsa, o‘g‘ilning bunga haqqi bo‘ladi.

Yoshi yigirmada desak, otasi qirq-qirq besh atrofida bo‘lishini taxmin etsak, bu yoshda soqol qo‘yish amri mahol hodisa, xullas, savdogar yigit, O‘ziga bino qo‘ygan, olifta desak yanglishmaymiz. Ayniqsa, uning nutqi va holati, xarakteri yanada bo‘rttirib ko‘rsatadi.

“Enangni emgur! – deb qo‘ydi savdogar. U quti burchagidagi telefon dastagini ko‘tardi. Sim uzib tashlangan edi. - Enangni emgur! – dedi yana savdogar. U o‘zining kaftdek qo‘yin telefonini chiqardi. – men sizlarini qutqaraman! – qayoqlargadur telefon qildi, natija bo‘lmadi. – Birontasi joyida o‘tirmaydi, enangni emgur!”<sup>2</sup>

Ushbu parcha xarakterning o‘ziga xos jihatini shunday aniq – ravshan qilib ochib beradi.

Ya’ni, qahramon nutqidagi vulgarizmning uch marta qo‘llanilishi, jamoat joyida bu, albatta, tarbiasizlik nishonasi. Shuningdek, uning tabiatida manmanlik, boshqalarni mensimaslik hamma narsaga qodirman qabilida ish tutishini ko‘rish mumkin.

Savdogar dunyoni pul bilan o‘lchaydi, “yashash kerak, yashaganda ham yaxshi yashash kerak” naqliga amal qiladi.

Uning bu holati, ayniqsa, cho‘kkan kema bilan bog‘liq, voqeaga munosabat bildirilganda nomoyon bo‘ladi.

<sup>1</sup> Omon Muxtor. Xotin podshoh – T.: Sharq, 2010. 371-bet

<sup>2</sup> O‘sha asar 370-bet

“Bilmas ekansiz-ku, tog‘a. Dengiz ostida qancha javohir yotadi! – dedi savdogar jahl bilan”<sup>1</sup>

Dunyoda qanchadan-qancha kema dengiz, okeanga g‘arq bo‘lgan. Kundek ravshanki, bunda Savdogar uchun kemalarda halok bo‘lgan insonlar taqdiri emas, uning asosiy yuki bo‘lgan oltin-u javohirlar qayerdaligi qiziqtirgani ayonlashadi.

Osma-qutidagi asar qahramonlari o‘z hayotini taqdir hukmiga topshirishadi. Ular bu yerdan tirik chiqish, yo chiqmasliklarini bilmaydi. Taqdirga tan berishadi.

Bu yerda hammaning o‘zligi namoyon bo‘ladi.

- “Men kitob-pitobga ishim yo‘q. O‘qimayman! Boshim og‘riydi... Albatda, qiziqtirsa o‘qirdim. Yozolmayapsanlar! Mana, yuz yil savdogarlarni so‘kdinglar. Nima bo‘ldi?! Savdogar gullayapdi, o‘zlaring tutab yotibsanlar... Ha mayli. Enangni emgur!”<sup>2</sup>

Darhaqiqat, savdogar o‘zini kuchli, xaloskor deb o‘ylaydi. Ammo bu maydonda na kuchi, na puli, na tanish-bilishlari yordamga kela oladi. U bir necha bor telefon qilib, urinib ko‘radi, natija bo‘lmaydi. “Savdogar pul bilan balo-qazoni daf qilish mumkindek, qo‘ynidan xamyonni chiqarib, shoshmasdan yonida bor naqdinani sanashga tushgan edi. Nihoyat, sanab bo‘ldi”<sup>3</sup>

Asardagi Savdogar, Darvesh-masxaraboz va Baxshi obrazlarining o‘zaro suhbatini asar mohiyatini ochib bergandek taassurot qoldiradi.

“Darvesh-masxaraboz odaticha ming‘irladi.

- Bir tovuqqa ham suv, ham don kerak, odam bo‘lish uchun hamyon kerak! ”

Qizcha bu gapga negadir kuldi.

- Hamyon emas. Maydon kerak, Maydon!”<sup>1</sup>

Osma-quti ochilganda hamma tarqagach, Savdogar ham avvalgidek, hech narsa bo‘lmagandek, kimgadir baqirib-chaqirib ketadi. U o‘zligini odamiyligini namoyon

<sup>1</sup> Omon Muxtor. Xotin podshoh – T.: Sharq, 2010. 394-bet

<sup>2</sup> O‘sha asar 420-bet

<sup>3</sup> O‘sha asar 440-bet

<sup>1</sup> Omon Muxtor. Xotin podshoh – T.: Sharq, 2010.. 440-bet



etadi-yu, qopqadan qutilgach, yana hech narsa bo‘lmagan, ko‘rmagandek yana asliga qaytib, yo‘lida davom etib ketaveradi.

Arbob haqida ham shunday fikr bildirish mumkin. U ham jamiyatdagi Arboblarning yig‘ma timsoli. U “semiz, oppoq kishi”<sup>2</sup>. U Darvesh-masxaraboz bilan aka-uka edi.

U akasining har bir harakati, so‘zidan hijolat chekar, uyalib qarardi va bir narsaga odamlar nega odatda, unga nisbatan akasini ko‘proq yaxshi ko‘rishlariga tushuna olmas edi... ”<sup>3</sup>

Darvesh-masxaraboz akasi, u doim xalq bilan birga, uning ichida, xalq dardi bilan yonib yashagani uchun uni ko‘proq sevishlarini bilmas edi.

Har kim ham hayotda, albatta-bilib bilmay gunoh ish qilib qo‘yadi, beayb Parvardigor. Lekin bu ayblarni har kim ham bo‘yniga olavermaydi.

Osma-qutida qamalgach, Mulla “Bizni gunohlarimiz qisdi” deganda hamma qilgan gunohlarini o‘ylab, bo‘yniga olib turganda “Bizni nima gunohimiz bor ekan?!”<sup>4</sup>deb Arbob norozilanib qoladi. Uning ismi Obidxo‘ja. Hayoti ham boshqalarga o‘xshamagan, o‘ziga xos. Uylangach, hech bir qarindosh-urug‘i bilan bordi-keldi qilmaydigan, uni so‘raganlarga Obidxo‘ja o‘lgan”, deb aytirib yuboradigan bo‘ldi. Sharoit yo‘qligini ro‘kach qiladi.

“Obidxo‘janing omadi keldi. Kursiga bir o‘tirgan edi, kursini shiftiga ko‘tarilib boraverdi. Naq shiftga mo‘ljallaganda to‘xtadi ”. <sup>5</sup>

Lekin sharoit to‘g‘ri kelganda yo‘qlaydigan odami qolmagandi. Yozuvchi ushbu jumlar bilan gapda Arbobning butun xarakterini ochib berishga harakat qiladi.

“Bu dunyoda bironta odamni yaxshi ko‘rmay, xalq bilan oddiy munosabatda bo‘lmay, odamlarni qayerga, qanday boshlash mumkin?!” <sup>1</sup>

Arbob ham goh norozilnardi. Yoshlikdan odamlar bilan yaxshi muomala

<sup>2</sup> O‘sha asar 370-bet

<sup>3</sup> O‘sha asar 370-bet

<sup>4</sup> O‘sha asar 380-bet

<sup>5</sup> O‘sha asar 392-bet

<sup>1</sup> Omon Muxtor. Xotin podshoh – T.: Sharq, 2010. 393-bet

qilolmagan odam qariganda o‘zgarishi amri mahol. Hatto, u tug‘ishgan jigari akasiga qanday muomala qilishni bilmaydigan odam edi.

Yozuvchi aytgandek hayotda to‘laqonli ijobiy “oqdan oq” va umuman salbiy “qoradan qora” qahramon yo‘q. Inson har ikkisini ham o‘zida mujassam etgan.

Arbob ham xuddi shunday. U salbiy yoki ijobiy qahramon ham emas. U real inson.

“Men yozuvchi bo‘lishim kerak edi! Talantim bor. Hayotni bilaman.

Vaqt yo‘q, - shikoyat qildi Arbob. – Menga qolsa, qayoqdagi dengizlar, kemalarni yozib yurmasdim”.<sup>2</sup>

Osma-qutida qamalib qolib Arbob o‘zligini shunday namoyon etadi.

Romanda yana shunday bir-biridan ajoyib, turli obrazlar borki, ularni eslamay iloji yo‘q. Bulardan biri Osiy, biri qizcha. Asar qurilishdagi ikki “holat” deya nomlangan boblardan aynan mana shu ikki qahramonga bag‘ishlangan.

“Osiy o‘ttiz yoshlarda. Notinchmi, pitirakmi? – afti angoridan, yoshiga ko‘ra kattaroq tuyular edi...?”<sup>3</sup>

Osiy o‘z nomi bilan Osiy. Bu qahramonni adib o‘zgacha ruh, qarash bilan tasvirlaydi. Uni tasavvufiy aqidalarga aloqador shaxs desak bo‘ladi. Chunki u bolalikdan uzoq yurtga sayohat qilishni yoqtirar ( xuddi Majnun kabi) bu haqida o‘ylaganda ko‘zlariga yosh quyilardi.

U olijanob, begunoh, hech bir qimirlagan jonga ozor bermaydi, chekmaydi, xullas, qanotsiz yerdagi “farishta”. Ammo umri davomida halovatini yo‘qotdi. Bu xalovatni u to “maydon” da “yashab” undan qutilib chiqmaguncha anglay olmadi. O‘tgan davrda uning umri osiylikda o‘tdi.

Yoshligida u qayiqda suzib ketayotib, bir qizchani suvga tushib ketib, g‘arq bo‘lganini, unga yordam beraolmaganini o‘ylaydi. Hatto uylanib, farzandli bo‘lgach, oilasini tashlab yolg‘izlikda yashaydi.

---

<sup>2</sup> O‘sha asar 411-bet

<sup>3</sup> O‘sha asar 371-bet

Arzimas tuyilgan xato uni umr bo‘yi ta‘qib etadi. Bu insondagi vijdon uyg‘oqligini, gunohini e‘tirof etib, bundan ruhan azoblanishi. “U yana, hayvon ham bunday qilmaydi, deb o‘ylaydi. Dengizda delfinlar g‘arq bo‘layotgan odamlarni ustlariga yuklab qirg‘oqqa tashib chiqarishi xayolidan kechdi. Nahotki, inson maxluqdan ham battar bo‘lsa?!”<sup>1</sup>

Ha, Osiy “gunohiga savol beruvchi inson. U ko‘ngliga taskinni sayr-u sayohatdan izlaydi. Inson gunohsiz yashay olmas ekan-da, deb goh-gohida o‘ziga taskin, tasalli berib turadi.

Lekin asar nihoyasida Osiy o‘sha daryoda ko‘rgan qizni topadi. “Omon Muxtor asarlaridagi o‘zbeklarni ishxona, bozor-o‘char yoki bekatlarda uchratib bo‘lmaydi. Ehtimol, payqash mumkin emasdir. Lekin ular bor va takrorlanmas adabiy qahramonlar qiyofasida o‘zligini namoyon etmoqda. O‘zbek adabiyoti o‘zbek kishining o‘ziga xos timsolini yarata olganda, o‘z-o‘zidan tabiiy ravishda jahon miqyosida ko‘tarila oladi. Chunki biz jahonda mavjud bo‘lganimiz singari jahon ham bizda namoyondir”<sup>3</sup>.

“Maydon” romani o‘ziga xos badiiyati, inson botinining chuqur ko‘rsatish orqali obrazlari “Men”ligini aniq tasvirlay olganligi bilan romanlari ichida ajralib turadi.

Asosiy voqea bir joyda – Osma-qutida, bir kunda sodir bo‘ladi. U beixtiyor bizga Chingiz Aytmatov qalamiga mansub “Asrga tatigulik kun” romanini yodga soladi. Asardagi obrazlar orqali ularning hayotiga bog‘liq bo‘lgan va bo‘lmagan hikoyalari beriladi. Albatta, bu hikoyalari obraz taqdiriga taalluqli, uning ichki olami, ruhiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi vositadir.

Xulosa qilib aytganda, Omon Muxtorning “Maydon” romanini yangicha uslubda yozgan, o‘ziga xos izlanishlar samarasi, deya e‘tirof etish mumkin. “Maydon” romanining qahramonlari zamondoshlarimiz – ularning turmushi, yurish-turishi, xatto o‘y-xayollarida ham bugungi kun nafasi sezilib turadi.

<sup>1</sup> Omon Muxtor. Xotin podshoh – T.: Sharq, 2010. 390-bet

<sup>3</sup> Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi. 2006. 34-bet.

Yozuvchining maqsadi, zamondoshlarimiz ongi shuuridagi o'y-kechinmalari hissiyotlarini yoritib berish.

“Maydon” romani mutolaasi jarayonida jahon adabiyoti durdonalari bo‘lmish Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun”, Agata Kristining “O‘nta negr bolasi” romanlariga xos badiiy komponentlar, ”Maydon”ga ham xos ekanligini anglaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi. 2006. 34-bet.
2. Omon Muxtor. Xotin podshoh – T.: Sharq, 2010. 432-bet
3. Омон Мухтор. Хотин подшоx. – T.: Шарк, 2010, 336-bet.